

AYOLLAR HUQUQLARI VA GENDER TENGLIK

Xoliqberdiyeva Mashhura

Termiz Davlat Universiteti

Yuridik fakulteti talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20213128>

Annotatsiya. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda ayollar huquqlari va gender tenglikni ta'minlash dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda, shu boisdan Jahon Iqtisodiy Forumi tomonidan ayollar huquqlari va gender tenglikni ta'minlash uchun mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilishda har yili Global gender gap report indeksini taqdim qiladi. Bu indeks, ayollar huquqlari qanchalik darajada ta'minlanayotganini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u davlatlarda inson huquqlari ayniqsa ayollar huquqlari qanchalik ta'minlanishini baholaydi. Bu esa davlatlarni xalqaro imidjiga ta'sir qiladi. Shu sababdan mamlakatimizda ham gender tenglikni isloh qilish va yanada takomillashtirishni davrning o'zi taqozo etadi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, gender stereotiplar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy ishtirok, ta'lim olish imkoniyati, iqtisodiy ishtirok, GGGAR, Nikaragua davlati.

WOMEN'S RIGHTS AND GENDER EQUALITY

Abstract. Ensuring women's rights and gender equality remains one of the pressing issues in both developed and developing countries. Therefore, the World Economic Forum annually presents the Global Gender Gap Report index to analyze differences among countries in achieving women's rights and gender equality. This index plays an important role in assessing the extent to which women's rights are ensured, as it evaluates how human rights—especially women's rights—are protected in different countries. This, in turn, affects the international image of states. For this reason, the need to reform and further improve gender equality in our country is dictated by the times.

Keywords: gender equality, gender stereotypes, international organizations, political participation, access to education, economic participation, GGGAR, Nicaragua.

ПРАВА ЖЕНЩИН И ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО

Аннотация. Обеспечение прав женщин и гендерного равенства остаётся одной из актуальных задач как в развитых, так и в развивающихся странах. В связи с этим Всемирный экономический форум ежегодно представляет индекс Global Gender Gap Report для анализа различий между странами в области обеспечения прав женщин и гендерного равенства. Данный индекс играет важную роль в оценке степени обеспечения прав женщин, поскольку он отражает, насколько соблюдаются права человека, особенно права женщин, в разных государствах. Это, в свою очередь, влияет на международный имидж стран. Поэтому необходимость реформирования и дальнейшего совершенствования гендерного равенства в нашей стране продиктована самим временем.

Ключевые слова: гендерное равенство, гендерные стереотипы, международные организации, политическое участие, доступ к образованию, экономическое участие, GGGAR, Никарагуа.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yilning 22-fevral kuni BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida: "Biz gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettiramiz", - deb nutq so'zladi, ijtimoiy siyosiy hayotda ayollarning rolini oshirish, hamda rivojlantirishni davom ettirish ta'kidlangan.¹

Gender tenglik—hayotning barcha sohalarida (siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy) hokimiyat va qarorlar qabul qilishda erkaklar va ayollarning bir xil, teng ishtiroki, jinslar o'rtasidagi tengligi hisoblanadi.²

Ayollar huquqlari himoya qilish necha yillardan beri muhim masala bo'lib kelgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, xalqaro miqyosda gender tenglik uchun ilk qadam 1871-yil 18-martda Parij kommunasiga asos solinganda qo'yilgan. Gender tenglik bo'yicha ilk tashkilot esa II jaon urushidan so'ng tashkil etilgan Xalqaro Demokratik Xotin-Qizlar Tashkiloti (XDXQT) hisoblanadi. Shu bilan birgalikda gender tenglik masalasi ilk bor 1945-yil BMT tashkil etilganda, uning 51 a'zosidan 30tasi ayollarga teng huquq va imkoniyatlar yaratilishi g'oyasini ilgari surib, ovoz berishgani bilan belgilanadi.³

Gender tenglik masalasida gender stereotiplar odatda erkak va ayollarning xulq-atvori, qobiliyati, qiziqishlari va imkoniyatlari haqida noto'g'ri yoki bir tomonlama tasavvurlarni shakllantiradi, gender stereotiplar bu ayollar va erkaklar haqidagi ijtimoiy tasavvurlar, an'anaviy tushunchalar va kutilmalar bo'lib, ular jamiyatda erkak va ayollarga qanday rol va vazifalar yuklanishi kerakligi to'g'risidagi fikrlarga asoslanadi. Stereotiplar cheklangan imkoniyatlar, kasbiy diskriminatsiya va ijtimoiy bosimlarni keltrib chiqarishi mumkin.⁴

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek har yili Jahon iqtisodiy forumi turli mamlakatlar uchun hisobot Global Gender Gap Report ⁵ (keying o'rinda GGGR) taqdim etadi. Indeks ayollarning boshqa mamlakatlardagi ayollarga nisbatan mavqeini emas, balki o'z mamlakatlaridagi erkaklarga nisbatan ayollarning mavqeini o'lchash uchun mo'ljallangan. U 2006-yildan buyon mamlakatlardagi 4 mezon bo'yicha, ya'ni ayollarning iqtisodiy ishtiroki va imkoniyati, ta'lim darajasi, salomatlik va omon qolish, siyosiy vakolat mezonlari asosida aniqlanadi.⁶ Reytingni yuqori o'rinlarida Islandiya, Finlandiya va Norvegiya davlatlari egallagan bo'lsa, top o'ntalikning oxirgi o'rinlarini esa Irlandiya va Islandiya davlatlari joy olgan. Nikaragua davlati esa reytingda 6-o'rinni egallagan.

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4179>

² <https://advice.uz/oz/document/2712>

³ Xolmatova Umida Sharof Rashdov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Magistranti ISSN: 2181-1776

⁴ https://uzpedia.uz/pedia/gender_stereotiplari

⁵ <https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2023/>

⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Global_gender_farq_hisoboti



Yuqorida keltirilgan rasm bo'yicha O'zbekiston GGGR indeksida 108-o'rinni egallagan.⁷ Muhim jihati shundaki, O'zbekiston ham reytinglar hisobotida birinchi marta kiritildi.

GGGR yuqorida ta'kidlab o'tilganidek 4 mezon bo'yicha baholanadi. Ta'lim sohasidagi mezonda ta'lim olish imkoniyatlari, qizlarning ta'lim olishiga to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari; iqtisodiy ishtiroki va imkoniyatlarida ish joyidagi gender tengsizlik, ayollarning ish haqi bo'yicha teng huquqlari va ish joyidagi diskriminatsiya; salomatlik va omon qolish sohasida ayollar sog'lig'i va reproduktiv huquqlar; siyosiy vakolat mezonlarida esa ayollarning siyosiy faoliyatdagi ishtiroki, parlamentdagi ayollar ulushi va qaror qabul qilish jarayonidagi o'rni bilan baholandi.

Xalqaro tashkilotlar ham O'zbekiston gender tengligi haqida bir qancha fikr va mulohazalar bildirishgan. Masalan BMT Ayollar Tuzilmasi O'zbekistonda gender tengligi borasidagi islohotlarni qo'llab-quvvatlaydi, va gender tenglikni ta'minlash borasidagi say'-harakatlariga yuqori baho berdi, biroq hali ham muammolar borligini ta'kidlanadi. Xususan, mehnat bozori, siyosiy qaror qabul qilish jarayonlari va ta'lim tizimida ayollarning imkoniyatlari cheklanganligini qayd etadi.⁸ Bundan tashqari Jahon Banki hisobotlarida gender tengligi iqtisodiy rivojlanishning asosiy omili ekanligini ta'kidlanadi.

O'zbekiston iqtisodiy o'sishni kuchaytirish uchun ayollar mehnat bozoridagi imkoniyatlarini kengaytirishi zarur deb hisoblaydi. Jahon Banki O'zbekistonda gender tengligini ta'minlash yo'lida ijobiy o'zgarishlarni e'tirof etadi, biroq ayollar ishsizligi, mehnat bozoridagi gender farqlari va qishloq joylarida gender tenglikka yetarli e'tibor qaratilmayotganini qayd etadi.⁹

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek Nikaragua reyting bo'yicha ohirgi yillar davomida yuqori o'rinlarni egallab kelmoqda.

⁷ <https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2023/>
⁸ <https://kun.uz/news/2024/05/10/bmt-ayollar-tuzilmasi-ozbekistonning-gender-tenglikni-taminlash-say-harakatlariga-yuqori-baho-berdi>
⁹ <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052824010040771/pdf/P1756961e2eec00751b5811c750be72227c.pdf>

Yer yuzidagi iqtisodiy jihatdan yuksalayotgan davlatlardan biri Nikaragua 2012-yilda Ortega ma'muriyati tomonidan amalga oshirilgan ijtimoiy dasturlar va siyosatlar tufayli birinchi o'ntalikdan joy olgan. Bu davlat Jahon miqyosida ayollar huquqlari bo'yicha ma'lum yutuqlarga erishdi.

Nikaragua davlatida gender tengligi rivojlanishida ayollarning siyosiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash uchun gender kvotalar tizimini joriy qilgan. Nikaraguada, 2024 yil fevral holatiga ko'ra, parlamentdagi 53,9 foizini ayollar o'rin egallagan.¹⁰ Parlamentda va boshqa davlat boshqaruv organlarida ayollarning ishtirokini oshirish maqsadida partiyalar o'z nomzodlarining kamida 50% ayollar bo'lishini ta'minlash majburiyatini oldi. Bu islohot natijasida, bugungi kunda Nikaragua parlamenti dunyodagi eng ko'p ayol vakillarga ega organlardan biri bo'ldi. Bundan tashqari gender tengligini qonun bilan mustahkamlash uchun Nikaragua davlati hukumati bir qancha islohotlarni amalga oshirgan. Masalan mehnat kodeksida ayollar uchun diskriminatsiyaga qarshi himoya choralari kuchaytirildi, ayollarni iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda o'z huquqlarini amalga oshirishga ko'mak beruvchi dasturlar ishlab chiqildi.¹¹

Nikaraguada gender tengligini rivojlantirish ijtimoiy o'zgarishlarni qo'llab quvvatlash maqsadida tashkil etilgan ijtimoiy xabardorlik kompaniyalari mamlakatning gender tengligi bo'yicha yuqori natijalarga erishishida muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu ijtimoiy xabardorlik kompaniyalar hukumat, nodavlat tashkilotlar, xalqaro hamkorlar va mahalliy jamoalar bilan hamkorlikda joriy etilgan. Ulardan biri "Hech qachon ko'z yumma" (Nunca Más Silencio)¹² kompaniysi bo'lib, ushbu kampaniya gender zo'ravonlikka qarshi kurashni kuchaytirishga qaratilgan bo'lib, jabrlanganlarni huquqlaridan foydalanishga chaqiradi va zo'ravonlikni bildirish uchun maxsus telefon liniyalari tashkil etildi. Gender tengligini targ'ib qilishga qaratilgan dasturlarda yana biri bu "Biz barchamiz tengmiz" (Somos Iguales)¹³ dasturi bo'lib ushbu kampaniya gender tengligi madaniyatini targ'ib qilish va ayollar va erkaklarning jamiyatdagi teng o'rnini tasdiqlashga qaratilgan. Keltirib o'tilgan ijtimoiy xabardorlik kompaniyalari asosan Jamiyatning barcha qatlamlarini qamrab olishdan iborat bo'lib kompaniyalar shahar va qishloq joylarida birdek olib borilgan, bu esa gender tengligi haqida ko'proq odamlarni xabardor qilishga yordam berdi. Bundan tashqari gender tenglik masalalarini davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanishiga ko'maklashdi.

Yuqorida keltirilgan Nikaragua tajribalari gender tenglikni targ'ib qilishda qanchalik foydalali bo'lishini ko'rsatib o'tdi.

Mamlakatimizda ham gender tenglikni rivojlantirish uchun bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan gender tenglikni ta'minlash uchun normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi

¹⁰ https://data.ipu.org/women-ranking/?date_month=11&date_year=2024

¹¹ <https://globalpeoplestrategist.com/nicaragua/#:~:text=According%20to%20the%20Labor%20Code,or%2045%20hours%20per%20week>

¹² <https://www.government.nl/latest/weblogs/behind-the-scenes-of-the-human-rights-tulip/2021/nominee-for-human-rights-tulip-fled-from-nicaragua-but-their-struggle-continues>

¹³ <https://www.ci-romero.de/somos-iguales/>

to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori¹⁴, shuningdek 2019 yil 2 sentyabrda qabul qilingan “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi qonuni¹⁵ shular jumlasidandir. Ulardan eng muhimlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi 297-IV-sonli qaroridir¹⁶. Ushbu qaror bilan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Agarda o'zbekistonda ham Nikaragua davlatidagi kabi tajribalar qo'llanilsa gender tenglikdagi zo'ravonliklar ancha kamayishi, shu bilan birgalikda Global Gender Gap Report indeksida yuqori o'rinlarga erishishimiz mumkin. Nikaragua davlatidagi ayniqsa "Hech qachon ko'z yumma" (Nunca Más Silencio) kompaniyasining muhim tarkibiy qismi bo'lgan gender zo'ravonlikka qarshi maxsus telefon liniyalari tashkil etilganligi muhim ahamiyat kasb etgan. Jabrlanganlarga yordam berish uchun tezkor platformani ta'minlash bu liniyalar tashkil etilishining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda ham shunday kompaniyaning tashkil etilishi va bu kompaniya tarkibida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha bo'linmalar ish yuritishi, shuningdek telefon liniyalari tashkil etilishi, tezkor tarzda gender tenglikdagi zo'ravonliklardan xabardor bo'lish oshirilishi va bunday zo'ravonliklarga qarshi zudlik bilan chora -tadbirlar amalga oshirish imkonini beradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki mamlakatni rivojlantirishda gender tenglikni ta'minlash va uni isloh qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Jahon forumi tomonidan tashkil etilgan GGGR mamlakatlardagi gender tenglikni ta'minlanishi qanchalik darajada olib borilayotganligi haqida hisobot taqdim etadi. Ayollarning iqtisodiy ishtiroki, ta'lim darajasi, sog'liqni saqlash, shuningdek, siyosiy imkoniyatlari bo'yicha jahon mamlakatlarida gender tenglikni ta'minlash masalasi ilgari turadi.

Mamlakatimizda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ijobiy ishlar jumlasiga Ayollar daftari ma'lumotlar bazasi yuritilishi ayollarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, psixologik qo'llab-quvvatlashga, bilim va kasb o'rganishga ehtiyoji va ishtiyoqi bo'lgan, ishsiz xotin-qizlarning muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borilishini alohida ta'lkidlash lozim¹⁷.

Ta'lim sohasida ham ancha islohotlar amalga oshirish uchun 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi dasturida aniq belgilab berilgan.

Masalan: «STEAM» fanlari (Science — tabiiy fanlar, Technology — texnologiyalar, Engineering — texnik ijodkorlik, Art — san'at, Mathematics — matematika) bo'yicha ta'lim olayotgan xotin-qizlarning magistrlik, doktorlik ishlarini davlat tashkilotlari, xususiyl kompaniyalarda aprotatsiyadan o'tkazishlarida qo'llab-quvvatlash, ilmiy izlanish, tadqiqotlar olib borayotganlarni qo'llab-quvvatlash.¹⁸

Ammo yanada isloh qilish uchun jahon tajribalarini o'rganishi va ularning maqbullarini qo'llash orqali gender tenglikka erishamiz.

¹⁴ <http://nhrc.uz/oz/news/ozbekistonda-gender-siyosatiga-etibor-yanada-kuchaymoqda>

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-4494849>

¹⁶ <https://lex.uz/docs/-5466673?ONDATE=28.05.2021>

¹⁷ <https://advice.uz/oz/document/2289>

¹⁸ <https://lex.uz/docs/5466673#5468056>

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/4179>
2. <https://advice.uz/oz/document/2712>
3. Xolmatova Umida Sharof Rashdov Nomidagi Samarqand Davlat Universiteti Magistranti ISSN: 2181-1776
4. https://uzpedia.uz/pedia/gender_stereotiplari
5. <https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2023/>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Global_gender_faq_hisoboti
7. <https://www.weforum.org/publications/global-gender-gap-report-2023/>
8. <https://kun.uz/news/2024/05/10/bmt-ayollar-tuzilmasi-ozbekistonning-gender-tenglikni-taminlash-say-harakatlariga-yuqori-baho-berdi>
9. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099052824010040771/pdf/P175696.1e2eec00751b5811c750be72227c.pdf>
10. https://data.ipu.org/women-ranking/?date_month=11&date_year=2024
11. <https://globalpeoplestrategist.com/nicaragua/#:~:text=According%20to%20the%20Labor%20Code,or%2045%20hours%20per%20week>
12. <https://www.government.nl/latest/weblogs/behind-the-scenes-of-the-human-rights-tulip/2021/nominee-for-human-rights-tulip-fled-from-nicaragua-but-their-struggle-continues>
13. <https://www.ci-romero.de/somos-iguales/>
14. <http://nhrc.uz/oz/news/ozbekistonda-gender-siyosatiga-etibor-yanada-kuchaymoqda>
15. <https://lex.uz/docs/-4494849>
16. <https://lex.uz/docs/-5466673?ONDATE=28.05.2021>
17. <https://advice.uz/oz/document/2289>
18. <https://lex.uz/docs/5466673#5468056>